

**“YANGI MAQOM NAMUNALARI”***Jaxongirova Mubiyna*

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti  
san’atshunoslik:musiqashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistri*

*Ilmiy rahbar: Berdixanova Shaxida Nurlibayevna*

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa  
san’ati instituti “O‘zbek maqom tarixi  
va nazariyasi” kafedrasi san’atshunoslik fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent*

Maqom san’ati xalqimizning nomoddiy madaniy merosi hisoblanib, uni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazishda maqom san’ati namoyondalarining ahamiyati katta. Maqom san’atini vujudga kelishi hamda takomillashuv jarayoni albatta bastakorlik ijodiyoti bilan bog’liq. Bastakorlik ijodiyoti mumtoz musiqa merosimizning o‘ziga hos jihatlarini ko‘rinishi hisoblanib, uzzoq o‘tmishga ega tariximizning yorqin namunasidir. Bugungi kunda ham ushbu bastakorlik an’anasini davom ettirib kelayotgan ijodkorlar mavjud bo‘lib, ular orasida asosiy faoliyatini maqom san’atini saqlash, takomillashtirishga bag’ishlagan bastakor, O‘zbekiston xalq xofizi, Erkin Ro‘zimatov ijodi alohida ahamiyat kasb etadi.

Erkin Ro‘zimatov ko‘p yillik ijodiy tajribalariga tayangan xolda bugungi kunga qadar Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek Milliy Musiqa San’ati Institutida maqom xonandalariga dars berib kelmoqda. Ustoz san’atkor talabalarni kelgusi ijod yo‘llaridagi muvaffaqiyatlari uchun fidokorona mehnat qilmoqda desak mubolag’a bo‘lmaydi. Xususan, kuni kecha 19-dekabr 2024 yilda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek Milliy Musiqa San’ati Institutida Erkin Ro‘zimatovning “Yangi maqom namunalari” kitob taqdimoti va sinf konserti bo‘lib o‘tdi. Konsert dasturi bastakorning N.Aminjonov g’azaliga yozilgan “Maqom” ashulasi bilan boshlandi. Aytish joizki taqdimot o‘ziga hos ko‘rinishda bo‘ldi. Xar bir ijro

qilingan asardan so‘ng sahnaga Erkin Ro‘zimatovni tabriklash uchun mehmonlarga so‘z berildi.



Xususan O‘zbek Milliy musiqa san’ati inistituti rektori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent E.Shermanov, professor K.Aminova, professor R.Qosimov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist N.Pirmatova, O‘zbekiston Respublikasi yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira M.Mirsaidova, folklorshunos, professor, O’rozali Toshmatovlar o‘zlarining iliq so‘zlari va Erkin Ro‘zimatov ijodiga qisqacha ta’rif bilan tabriklashdi.

Ma’lumot o‘rnida aytish kerakki, “Yangi maqom namunalari” Erkin Ro‘zimatovning o‘quv qo‘llanmasi 2024- yil nashr etilgan. Ushbu kitobda muallif bugungi kunda ijrochilik olamida dolzarb muammolardan biri bo‘lgan yosh maqom ijrochilari ayniqsa o‘smirlar ijrosidagi ashulalarda talaffuz masalasi, ayrim she’r va g’azallarni o‘quvchilar yoshiga munosib bo‘lmasdan, ma’nosini tushinib tushunmay ijrodagi xatoliklarini inobatga olgan xolda, bazi maqom ashula yo‘llarini yoshlar saviyasiga mos g’azallarga o‘zgartirib, ushbu o‘quv qo‘llanmani nashr ettirgan. Kitobning yana bir yangiligi shundaki zamonamizga monanda xolda xar bir she’ri o‘zgartirib yangisiga moslashtirilgan maqom hamda

mumtoz ashula namunalarini audio variant kitobda skaner qilingan, bu esa yosh ijrochilar uchun ulkan imkoniyatdir.

Konsert dasturida institutda tahsil olayotgan maqom xonandalari hamda magistrlari, Uspesnkiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi, yangi yo‘l ixstisoslashtirilgan musiqa maktabi, Farg’ona ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi o‘quvchilari kitobdan o‘rin olgan asarlarlarni ijro qilishdi. Talabalar bilan bir qatorda tabrik uchun sahnaga chiqqan O‘zbekiston Xalq artisti Zamira Suyunova bastakor ijodiga mansub onalar haqidagi ashulasini ijro etdi.



Erkin Ro‘zimatov ustozlik faoliyati bilan bir qatorda o‘z ijodini davom ettirmoqda. Xususan konsert dasturida Imomjon Ikromov an’anasini davom ettirgan xolda so‘ngi yillarda yozilgan “Toshkent Irog’i II”, “Toshkent Irog’i III”, “Cho‘li Iroq II” ashulalari birinchi hamda ikkinchi bosqich magistrlari ijrosi tomonidan mehmonlarga xavola etildi.

Fidokor ustoz hamda bastkor bugungi kunda maqom san’ati va xalq musiqa ijodini kelgusi avlodga yetkizishda munosib xissa qo‘sib kelmoqda. Uning ijodiy faoliyati sabab maqomlarimiz yangi zamon nafasi bilan boyimoqda desak mubolag’a bo‘lmaydi. Ustozning kelgusi ishlarida zafarlar tilab qolamiz.